

ZIYORAT TURIZMI VA UNING O'ZBEKISTON XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDA TUTGAN O'RNI HAMDA AHAMIYATI

Xashimov Sheraxon Jo'raxonovich,

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

E-mail: sheraxon64@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada ziyorat turizmining nazariy va amaliy jihatlari, uning mamlakat turizm industriyasidagi o'rni hamda O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi ijobiy imidjini shakllantirish va mustahkamlashdagi ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston hududida joylashgan boy tarixiy-madaniy va diniy meros obyektlarining ziyorat turizmini rivojlantirishdagi salohiyati yoritilib, ushbu yo'nalishning xorijiy sayyohlar oqimini ko'paytirish, milliy madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni targ'ib etish hamda mamlakatning xalqaro nufuzini oshirishga qo'shayotgan hissasi ilmiy asosda baholangan.

Kalit so'zlar: Ziyorat turizmi, xalqaro imidj, diniy turizm, madaniy meros, turizm industriyasi, tarixiy obidalar, turistik salohiyat, xalqaro nufuz, sayyohlar oqimi, turizm infratuzilmasi, brending, O'zbekiston turizmi.

ПАЛОМНИЧЕСКИЙ ТУРИЗМ И ЕГО РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В УЛУЧШЕНИИ МЕЖДУНАРОДНОГО ИМИДЖА УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты паломнического туризма, его роль в туристической индустрии страны и его значение в формировании и укреплении позитивного имиджа Узбекистана на международном уровне. В статье также освещается потенциал богатого исторического, культурного и религиозного наследия, расположенного на территории Узбекистана, для развития паломнического туризма и оценивается вклад этого направления в увеличение потока иностранных туристов, продвижение национальной культуры и духовных ценностей, а также повышение международного престижа страны на научной основе.

Ключевые слова: Паломнический туризм, международный имидж, религиозный туризм, культурное наследие, туристическая индустрия, исторические памятники, туристический потенциал, международный престиж, туристический поток, туристическая инфраструктура, брендинг, туризм в Узбекистане.

PILGRIMAGE TOURISM AND ITS ROLE AND IMPORTANCE IN IMPROVING UZBEKISTAN'S INTERNATIONAL IMAGE

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of pilgrimage tourism, its role in the country's tourism industry and its importance in forming and

strengthening a positive image of Uzbekistan at the international level. The article also highlights the potential of the rich historical, cultural and religious heritage sites located on the territory of Uzbekistan for the development of pilgrimage tourism, and evaluates the contribution of this direction to increasing the flow of foreign tourists, promoting national culture and spiritual values, and increasing the international prestige of the country on a scientific basis.

Keywords: *Pilgrimage tourism, international image, religious tourism, cultural heritage, tourism industry, historical monuments, tourist potential, international prestige, tourist flow, tourism infrastructure, branding, Uzbek tourism.*

KIRISH

Dunyoda turizmning 200 dan ortiq turlari mavjud bo'lib, ular orasida tez rivojlanayotgan, istiqbolli yo'nalishlaridan biri bu ziyorat turizmidir. Shu ma'noda, O'zbekiston ham ziyorat turizmini rivojlantirish, turizmning ushbu yo'nalishiga e'tiborni kuchaytirish orqali mamlakatning xalqaro imidjini yuksaltirish masalasida katta imkoniyatga egadir. "Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud. YUNESKONing Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga 200 dan ziyod moddiy va 6 ta nomoddiy obyektlarimiz kiritilgan. "Ko'hna tarix durdonalari" milliy dasturi doirasida turistlarni o'ziga jalb qiladigan madaniy meros obyektlari soni 800 tadan 2,5 mingtaga yetkaziladi, 745 ta madaniy meros obyekti restavratsiya qilinadi, 20 ta me'moriy yodgorlikda "ochiq osmon ostidagi muzey"lar tashkil etiladi. Ziyorat turizmi dasturi doirasida sayohatga keluvchilar sonini hozirgidan uch barobar ko'proqqa oshiramiz. Ana shu ezgu maqsadda tabarruk ziyorat maskanlarining geografiyasi kengaytirilib, ularning yagona xaritasi yaratilmoqda" [1].

O'zbekistonda bugungi kunda ziyorat turizmi ya'ni diniy turizmni rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilib, ko'plab diniy-madaniy ziyoratgohlar qayta ta'mirlanib turizm obyektlariga aylantirilmoqda. Ziyorat turizmi turizmning eng faol va rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega turlaridan biri bo'lib, O'zbekistonda mavjud bo'lgan ziyoratgohlar atrofida yangi infrastrukturallarni shakllantirish masalasiga e'tibor kuchaytirilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ziyorat turizmi masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, B.M. Bobojonov, I. Azimov, A. Mamanazarov, B. Sattorov, O. Poslavskaya, S. Jo'rayeva, T. Dadabayev, E. Karimov va D. Abramsonlarning ilmiy izlanishlarida ziyorat turizmining nazariy-metodologik asoslari, uning turizm industriyasidagi o'рни, tarixiy-madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish masalalari hamda sohaning rivojlanish istiqbollari atroflicha tahlil qilingan. Jumladan, olim D.M. Raximovning fikriga ko'ra "Ziyorat turizmi (diniy turizm deb ham atash mumkin)" – musulmon madaniyati uchun ahamiyatli joylarga sayohatdir. Masalan, memorial majmualar va ziyoratgohlarga. Ushbu turizm turi tashkilotchilari halol standartlar bo'yicha mehmonxonaga joylashtirish, halol taomlar bilan ta'minlash orqali qulay sharoit yaratadi [2;196].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslangan holda qiyosiy-tarixiy tahlili metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo'lgan "kichik xaj" dasturini rivojlantirish va jadallashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda ziyorat turizmiga taalluqli bo'lgan yangi sayyohlik brendini ishlab chiqish, ziyoratchilar uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, ziyoratchilar talablarini inobatga olgan holda mavjud turistik marshrutlarni takomillashtirish masalasida ham ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, "ziyosat turizmi sayohatchi va ziyoratchilarning diniy (avliyolar hayoti), tarixiy (muqaddas joylar tarixi haqidagi) ma'lumotlarga ega bo'lish, falsafiy dunyoqarashni kengaytirish, ziyoratgohlardagi arxitektura va san'at asarlaridan ma'naviy va estetik zavq olish maqsadida odatiy yashash muhitidan tashqarida joylashgan muqaddas joylarga dunyoviy sayohati yoki ibodatidir"[3;74].

Ziyorat turizmini rivojlantirish O'zbekistonda tinchlik-barqarorlikni ta'minlash, muayyan hududlarni obodonlashtirish, aholini ish bilan ta'minlash masalasida ham muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda islom dinidan boshqa din vakillari ham ziyorat turizmi doirasida O'zbekistonga o'z sayohatlarini amalga

oshirmoqdalar. Jumladan, O'zbekiston janubidagi Surxondaryo viloyatida buddaviylik diniga aloqador bo'lgan Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom, Dalvarzintera kabi yodgorliklar mavjud bo'lib, hozirgi kunda Yaponiya, Koreya, Xitoy kabi davlatlardan kelgan sayyohlar bu yerda joylashgan buddaviylik obidalari va ibodatxonalariga katta qiziqish va e'tibor bilan qaramoqdalar. Shu bilan birgalikda O'zbekistonda islom dinidan boshqa dinlarda ham e'zozlanadigan Hazrati Dovud va Hazrati Doniyor ziyoratgohlari kabi muqaddas qadamjolar mavjud bo'lib, bu ziyoratgohlar O'zbekistonda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlanishiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Jahondagi ko'plab mamlakatlarning fuqarolari O'zbekiston hududidan boshqa mamlakatlarga sayohatlari davomida tranzit sifatida foydalanmoqdalar. O'zbekistonda ziyorat turizmi sohasida zarur infrastrukturani shakllantirish, mavjud obyektlar targ'ibotiga e'tiborni kuchaytirish, xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, axborot texnologiyalari yutuqlaridan ijodiy tarzda foydalanish O'zbekistonga keladigan sayyohlar oqimining ko'payishiga, ularga ko'rsatiladigan xizmat turining yaxshilanishiga xizmat qiladi. "O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan siyosat va olib borilgan tadbirlar o'z natijasini berib, mamlakatimiz ziyorat turizmi bo'yicha jahon reytingida so'nggi yillarda 34-o'rindan 9-o'ringa ko'tarildi. O'zbekistonda mavjud 8 mingdan ziyod madaniy meros ob'ektlaridan 1257 tasi ziyoratgohlar hisoblanib, ulardan 1183 tasi islom, 57 tasi nasroniy diniga taalluqlidir. Shuningdek O'zbekistonda 9 ta buddizm va 8 ta iudaizmga oid ziyoratgohlar ham bor"[4].

Islom dunyosidagi Qur'oni Karim namunalaridan biri – Hazrati Usmon Mushafi O'zbekistonda saqlanayotgani, hadis ilmi olimlarining ustozi Muhammad al-Buxoriy, Naqshbandiya tariqatining ko'plab yetuk izdoshlarining yurtimizdan yetishib chiqqanligi, bir qancha diniy markazlarning mavjudligi O'zbekistonning ziyorat turizmi bo'yicha salohiyati yuqoriligini bildiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston bugun dunyoga yangi imkoniyatlarni ochayotgan, barqaror rivojlanayotgan, ziyorat va sayohat uchun xavfsiz mamlakat sifatida yanada kengroq tanilmoqda. Bu esa O'zbekistonning ziyorat turizmi sohasida xalqaro imidji yuksalishiga olib kelmoqda. 2022-yil 29-iyulda "Turkiy davlatlar bilan

turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-338-son Prezident qarori qabul qilindi. Qaror bilan turkiy dunyo doirasida "Tabarruk ziyorat" turizm konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiya doirasida "Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Marg'ilon, Qo'qon, Termiz va boshqa tarixiy shaharlarda buyuk allomalarning ilmiy va madaniy merosi to'g'risida seminar, simpozium, konferensiya, ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkaziladi. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida o'zaro hamkorlik orqali "Tabarruk ziyorat" brendi yaratiladi"[5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PQ-338-son qaroriga 1-ilova qabul qilinib, ilovaning 2-bobida O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini oshirish bo'yicha xalqaro hamkorlik sohasida amalga oshiriladigan ishlar ko'rsatib o'tilgan. Bular: "Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida transport logistikasi bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish; Turkiy davlatlar tashkilotining veb-portalida Konsepsiya bo'yicha onlayn-platforma va mobil ilovani ishlab chiqish; Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi davlatlar turizm sohasidagi vakolatli organlarining ziyorat turizmi mutaxassislari ishtirokida tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish; Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar bo'ylab yurtimizning ziyorat turizmi salohiyatini keng targ'ib etish maqsadida o'zaro taqdimot, ko'rgazma va «B2B» formatidagi uchrashuvlar o'tkazish hamda buyuk allomalarimizning hayoti, ilmiy merosiga bag'ishlangan filmlar namoyishini tashkil etish; Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi davlatlarning vakolatli organlari va mutaxassislari bilan umumturkiy madaniy meros obyektlarining konservatsiyasi va restavratsiyasini amalga oshirish bo'yicha muntazam hamkorlikni yo'lga qo'yish; Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi davlatlarning turizm sohasidagi vakolatli organlari bilan turizm sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish masalalarida hamkorlik o'rnatish"[5] kabilardan iboratdir.

Hozirgi kunda ziyorat turizmi salohiyati yuqori bo'lgan Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Turkiya va arab davlatlaridan ziyoratchilarni mamlakatimiz tarixiy shaharlari, xususan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabzga tashrifi sonini oshirish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasidagi yirik ziyorat turizm obyektlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida "Sulton Uvays bobo", ziyoratgohi, Andijon viloyatida "Qutayba ibn Muslim" maqbarasi, Buxoro viloyatida "Etti pir" ziyoratgohlari, naqshbandiya tariqatining etti piru komillari - Abduxoliq G'ijduvoni, Orif Revgariy, Anjir Fag'naviy, Ali Romitaniy, Boboyi Samosiy, Amir Kulol va Bahouddin Naqshbandlarning ziyoratgohlari, "Poyi Kalon" majmuasi kabilar mavjud bo'lib, bundan tashqari payg'ambar va uning avlodlari bilan bog'liq (Ayub alayhissalom, Dovud alayhissalom, Hazrat Xo'ja Ubbon), tasavvuf allomalari bilan bog'liq (Jeloni, Zinda fil Ahmadi Jomiy, Sayfiddin Boxarziy, Xo'ja Ismatulloh Buxoriy, Shoxi Axiy Fayzobod), hunarmandchilik pirlari bilan bog'liq (Xoja Asbgardon, Boboyi Porado'z, Xoja Bulg'or, Burqi Sarmast), ayollar nomi bilan ataluvchi (Bibi Orifa, Bibi Maxsumai Pok, Qiz Bibi, Childuxtaron), shifobaxshlik xususiyatiga ega (Xoja Zafaron, Sarichashma, Tuyaovul chashmasi, Qo'tirbuloq, Bibi Kabudpo'sh) kabilarni ziyoratgohlar shaklida tashkil etish mumkin. Jizzax viloyatida "Novqa ota" ziyoratgohi va masjidi, "O'smat ota" ziyoratgohi, "Sa'd ibn Abu Vaqqos", "Sayfin ota", "Sovruk ota", Xo'jai Sarob ota" "Sayyid Burxoniddin Qilich" ziyoratgohlari, Qashqadaryo viloyatida "Abul-Muin an-Nasafiy", "Xoja Imkonagiy", "Darvesh Muhammad Vaxshivoriy" ziyoratgohlari, Navoiy viloyatida "Chashma" majmuasi, Namangan viloyatida "Sulton Uvays Qaraniy" majmuasi, Samarqand viloyatida "Imom Al-Moturidiy" maqbarasi, "Imom Al-Buxoriy" majmuasi, "Shohizinda" maqbaralar majmuasi, "Xoja Ahror" maqbarasi, "Hazrati Ruhobod yoki Shayx Burhoniddin Sog'arjiy" maqbarasi, Xoja Abdu Darun, Xoja Abdu Berun, Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Mansur Moturidiy, Xoja Ishoq Vali qabrlari, Xoja Doniyol maqbarasi, Hazrati Xizr masjidi, Hazrat Xoja Zudmurod masjidi, Namozgoh masjidi, Sirdaryo viloyatida "Guliston" jome masjidi, Mustafouq ota turbati, To'ra Sulaymon turbati, Surxondaryo viloyatida "Abu Iso Muhammad imom at-Termiziy", "Hakim at-Termiziy", "Alouddin Attor", "Mavlono Muhammad Zohid" ziyoratgohlari, Toshkent viloyatida "Zangiota" majmuasi, Farg'ona viloyatida "Burxoniddin Marg'inoniy" yodgorlik majmuasi, Xorazm viloyatida "Pahlavon Maxmud" maqbarasi, Toshkent shahrida "Hazrati Imom" majmuasi kabilar mavjud bo'lib, ular

tashqi va ichki ziyorat turizmini rivojlantirish, ziyorat turizmini rivojlantirish sohasida O'zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirishda muhim ahamiyatga egadir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ziyorat turizmi O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish, mamlakatning ijobiy imidjini shakllantirish va uni jahon miqyosida nufuzli ziyorat maskanlaridan biri sifatida e'tirof etilishida muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Mamlakat hududida mavjud boy tarixiy, madaniy va diniy meros obyektlari ziyorat turizmini rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ziyorat turizmi nafaqat turistik oqimni kengaytirish, balki islom sivilizatsiyasi va ma'naviy qadriyatlarni xalqaro hamjamiyatga targ'ib etishning samarali vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Mazkur yo'nalishni yanada rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy etish, malakali mutaxassislar hamda soha bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlar salohiyatidan samarali foydalanish muhim omillardan hisoblanadi. Ziyorat turizmini ilmiy asoslangan yondashuvlar, innovatsion boshqaruv mexanizmlari va zamonaviy marketing strategiyalari asosida rivojlantirish Yangi O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi turistik jozibadorligini oshirish, uning ziyorat turizmi markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlash hamda xalqaro imidjini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bois, ziyorat turizmini rivojlantirish davlatning turizm siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida izchil takomillashtirib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasidagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/6763>
2. Raximova D.M. O'zbekistonda ziyorat turizmining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari // Research and implementation scientific-methodical journal. – Farg'ona, 2025. - Vol. 03. Iss. 1. - B.196-198.
3. Xasanova G., Boboev A. Mintaqada ziyorat turizmi rivojlantirishni takomillashtirish yo'llari // Mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy muammolari: tajriba, tendentsiyalar va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami (28-oktabr 2023-yil). – Urganch, 2023. – B.74.

4. Xalqaro ziyorat turizm haftaligi boshlandi: asosiy tadbirlar Samarqand shahrida bo'lib o'tmoqda // <https://kun.uz/news/2022/11/01/xalqaro-ziyosat-turizm-haftaligi-boshlandi-asosiy-tadbirlar-samarqand-shahrida-bolib-otmoqda>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.07.2022 yildagi "Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-338-son qarori // <https://lex.uz/en/docs/6137065>